

Nigora NORMURODOVA

UMID KURTAKLARI

she`rlar



“Yangi asr avlodi” NMM
TOSHKENT–2007


84(54)6-5

She'riyatni turfa gullar, bisyor gulzorga qiyoslaydigan bo'lsak,
undan har bir kishi ko'zi quv naydigan gulni qidirishi tabiiy.

Ana shu ulkan gulzorga o'zining jajji she'rlarini taqdim elayotgan
Nigora NORMURODOVA ayni kamolot pallasida. Umidimiz,
ist'edod ko'z ochib, ko'zni quvontiruvchi, xushbo'y ifor sochuvchi,
dilni quvontiruvchi she'riyatga aylansin!

Mas'ul muharrir:
Tolibbek NAJMIDDINOV

HO 34859
081



ISBN 978-9943-08-212-0

© Nigora NORMURODOVA, "Umid kurtaklari".
"Yangi asr avlodi" NMM, 2007.

Kurtaklar gullarga aylansin

Odamzodning eng beg'ubor davri uning yoshligi bo'lgani kabi, so'zning ham eng bokira fasli uning she'rga evrilishidir. Bu fasllar uchrashganda esa mo'jizalar sodir bo'ladi — eng samimiy qo'shiqlar kuylanadi, eng toza she'rlar aytiladi, eng go'zal surattlar chiziladi.

Nigoraxoning o'zi ham, she'riy mashqlari ham ana shu — umidlari kurtaklayotgan fasl bo'sag'asida. Shuning uchun ilk to'plam nomini ham "Umid kurtaklari" deb qo'yibdi. Uning hayotga muhabbat, ona yurtga, tabiatga mastunlik aks etib turgan she'riy tizmalarini o'qir ekansiz sizning qalbingizda ham qalamkashning kelajagiga umid uyg'otadi. Dunyoga beg'ubor nigohni, samimiyatni, bezovta yurakni his qilasiz.

She'r ishqida, havasida qo'lga qalam olgan inson hech qachon noumid qolgan emas. Ammo so'zning mas'uliyatini his etish, unga munosib bo'lish behad mashaqqat. So'z o'zini oddiy gap aytishga, haroratsiz misralar tuzishga sarflamaslikni talab qiladi. Yosh havaskor qalamkash singlimiz Nigoraxon ana shu — so'z mas'uliyatini zimmasiga olayotgan ekan bundan, avvalo quvonmoq lozim. Uning she'riy tizmalarida ko'zga tashlanadigan ayrim kemtikliklar kelajakda qilinadigan tinimsiz mashqlar evaziga bartaraf bo'lajagiga ishonchimiz komil. So'z va qalamkashning bokira faslidagi umid kurtaklari gullarga aylanishiga tilakdoshmiz.

Aziz SAID,

shoir,

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

TA'ZIM

*Bu kunlarni ko'rgan, ko'rmaganlar bor,
Vatan deb o'tgandi Bobur ham zor-zor.
Usmon Nosir qalamida titragan nola,
Endi esa mustaqil, jon O'zbekiston!*

*Surhonim, suvlari ummonlarga teng,
Xivaning tuprog'i tillolarga teng.
Xattoki tor go'shang jannatlarday keng,
Bayraming muhorak, jon O'zbekiston.*

*Samarqand istixor, Buxorong faxr,
Temurdan yodgorlik bu — go'ri Amir.
Ajdodlar nomiga bo'lib munosib,
Zo'r avlod bo'lgaymiz, hur O'zbekiston.*



O'ZBEK AYOLI

*Yurtimning iftixori,
Go'zal juda, iboli.
Farzandadir hayoli,
Bu o'zbekim ayoli.*

*To'marisning mardligi,
Barchinoy sodiqligi.
Tilidan tomar boli,
Bu — o'zbekim ayoli.*



ONA BAXTI — FARZAND IQBOLI

*Farzand aziz, odobi undan aziz,
Orzuyimiz — Ishonchingiz oqlaymiz.
Oq yuvib, oq taragan ham o'zingiz,
Yonimizda bo'lmasangiz olam nursiz.*

*Quyoshdan ham ziyod bo'lgan mehringiz bor,
Lek sahroda tikan, bog'da gul ungan.
Gar farzandi qoqilsa-chi, dunyolar tor,
Ayting bunday mehrli zot qayerda bor?*

*Onang baxtin o'ylasang gar, ey tengdoshim.
Irodali va iymonli bo'lgin doim.
O'zgalarga ishonib sen siring aytma,
Onang baxtin o'zingda deb hilgin doim.*

*Do'st qidirib bo'lmasman men ovoralar,
Dunyodagi eng yaqin do'st bu onalar.
Bu so'zlar menga hikmat bo'lgani rost,
Bu dunyoda bir Allohu bir onang do'st.*



SHE'RIMSAN


*She'rimsan o'zimning,
Yolg'iz sirdoshim.
Sara-sara so'zimning,
Go'zal dunyosi.*

*Yurakdagi hayqiriq,
Sevinchlar bilan.
Dilimdan chiqadi,
Qofiya bilan.*

*She'rimsan o'zimning,
Yolg'iz sirdoshim.
Dardu sitam kelsa,
Mening bardoshim.*

*Hayotning egri-to'g'ri,
Yo'llari ila.
She'rginam, men goldim,
So'zlarim birla.*

*She'rimsan o'zimning,
Yolg'iz sirdoshim.
Ilhom kelganida,
Yaxshi bayotim.*



CHIN DO'STLAR AYRILMAYDI

*Chin do'stlar ayrilmaydi,
Dushman deb qayrilmaydi.
Yomon so'zni aytmaydi,
Bir-birini sotmaydi.*

*Dushmanni sen do'st dema,
Adashib afsus yema.
Do'stlar har-xil bo'ladi,
Kuyadi ham kuladi.*

*Do'st tanlasang-sinab ko'r,
Qo'ymasmikan senga to'r.
Tushmagin-da tuzoqqa,
Bormaysan-ku uzoqqa.*

*Do'sting bo'lsa, chin bo'lsin,
Bir-biriga mos bo'lsin.
Abadiy do'stlik qolsin,
Ulardan ibrat olsin.*



QISHNING KETGISI KELMAS!

*Qor yog'yapti gupillab,
O'ynoqlab, zipillab.
Bahor keldi deb edik,
Varrak o'ynab yurgandik.*

*Qishning ketgisi kelmay,
Bahorga bermaydi joy.
Yana ozroq qolsam deb,
Yog'adimi xoynaxoy!*

*Issiq kunlar oldinda,
Quyosh chiqib qoladi.
Bahorning ham qishdan-da,
Kuchi oshib boradi.*

*Tabiatni tushunish,
Qiyin bo'b qoldi qarang.
Yosh kurtaklar qiynalib,
Turishibdi-ya arang.*



BAHOR KELDI

*Qishning sovuq kunlari,
Ha, demay o'tib ketdi.
Bahor kelib elimga,
Qushlarga to'lib ketdi.*

*Fasllar kelinchagi,
Hush kelibsana elimga.
Go'zallig-u nafasat,
Olib kelgin dilimga.*

*Bahor kelsa ochilur,
Qiz-juvonlar bezanib.
Karvon-karvon o'tadi,
Turnalaring yasanib.*

*Yerni maysa bosibdi,
Gullar ham yuz ochibdi.
Quyosh ham sal egilib,
Bahorga nur sohibdi.*



YO'L QURUVCHISI

*Tengsiz zahmatkash u. Yozning issig'i,
Qishning sovuqlari kelmaydi malol.
Savob terib yurgan yo'l quruvchisi,
Dunyoning ne'mati. Bor saxovati
Sizga jannatlarning suviday halol,
Uzoq safarlarda yurganda boqing.
Kuning yorug'ida yo'llar yaltirar
Ravon yo'llarga ham bir nigoh taqing.
Bir necha zahmatkash yo'l qurayotir,
Nafi yo'q yo'lingda turgan narsani,
Chetga surib qo'ysang, u ham bir savob.
O'rtaga qo'ysak gar savob bahsini.
Siz qilgan savoblar bo'lgaymi hisob.*



TO'RTLIK

*Osuda tun. Boqib osmonga,
Qalhimga ming olov hislar solaman.
Tilagimni aytib men yangi oyga,
So'ngra qalamimni izlab qolaman.*



AL.AMLI ISHQ

*Men mehrlar berib senga,
Lek muruvvat sezmadim .
Dard-u yodim sening bilan,
Shirin hayoling buzmadim.*

*Ishq bog'iga mo'raladim,
Ammo ichini kezmadim.
Sevgi tarixlarin ko'rib,
O'zim afsona tuzmadim.*

*Sening sovuq so'zlaringdan,
Ayt nega, nechun bezmadim.
Hayolimning ko'zgidan,
O'zga timsolni chizmadim!*



OMON BO'LING, DADAJON

*Har yil to'rtinchi iyun,
Biz uchun unutilmas kun.
Shu kun dadam tug'ilgan,
Olam yasharib kulgan.*

*Baxtimizga dadamiz,
Doim omon bo'lsinlar.
Allohdan tilagimiz,
Yuz yoshlarga to'lsinlar.*



BOLALAR UYI

*Bolalar uyida o'ynar bolalar,
Onasin sog'inib o'ylar bolalar.
Otam qayda debon o'ylar bolalar.
Ota-ona mehrin kuylar bolalar.*

*Meni qayga tashlab ketdingiz ,
Ko'zlarimni yoshlab ketdingiz,
Yuragimni g'ashlab ketdingiz,
Otajonim — olib ketingiz.*



OYJAMOL MUALLIMIM

*Yuzlaridan nur yog'ardi,
So'zlaridan bol tomardi.
Ismi o'ziga monandim,
Oyjamol muallimim!*

*Qunt bilan dars o'tardi,
Tushunmasak aytardi.
Jimgina eshitganim,
Oyjamol muallimim!*

*Ikkichi bolalar ham,
Tinglar, eshitar har dam.
Urmagan, so'kmagannim,
Oyjamol muallimim!*

*Sababmi Jizzax yo'li,
Bevaqt chang soldi o'lim.
Afsus qilib qolganim,
Oyjamol muallimim!*

*Farzandlar qoldi yig'lab,
Yurak bag'rini tig'lab.
O'ylabgina, tolganim,
Oyjamol muallimim!*

*O'rni bilinar har dam,
Yonib o'chdi misli sham.
Eslab yuraman har dam,
Oyjamol muallimim!*



M . Alamutodovga

*Farzandlarni chin yetim etib ketdingiz,
Hurlar ichra endi siz ham arshga yetdingiz.
Ko'ngil yarim, siz g'amlarni berib ketdingiz.
Yaxshi nom-u yaxshi otni tashlab ketdingiz.*

*Alam to'la faryodlar qilmas koralar,
Rais hobom "qani" deb yig'lar bolalar.
Bugun ko'kni chulg'aydi g'amgin nolalar,
So'nggi so'zga guvoh endi jimjit dalalar!*



Ruslanga atab

*Barchaning ko'zida quvonch yargirar,
Iftixor tuyadi har bitta o'zbek.
Izdoshlarning qalbida ishonchi ortar,
Kimligini namoyon etoldi o'zbek.*

*Ruslan, isming dunyoga doston,
Bo'lolding sen haqiqiy o'g'lon.
Shu shijoat yor bo'lsin har on,
O'zbekiston senga chin makon.*

*Yurtboshimning boshi osmonda,
Momolaring doim duoda.
Kamtarliging qilmagin kanda,
Yayrab-yashna shunday Vatanda!*



MOMO YERGA SHUKRONA!

*Tirikmanki yerni bosib yuribman,
Qadamimda yurt havosin tuyibman.
Quvonganda toleyimni suyibman,
Omad ketsa yuragimdan kuyibman!*

*Menga kunduz, quyosh navosi yo'ldosh,
Kechalari yulduz ,oy go'zal sirdosh.
Ilhom quchgan tabiatim chin dildosh,
Ming shukurki, yerni bosib yuribman!*

*Umr yo'li qisqayu , hayot shirin,
Tez o'tarkan tashlamasdan ko'z qirin.
Necha sirlar sinoatda yashirin,
Tirikmanki yerni bosib yuribman!*

*Yillar o'tib ulg'aygandek bo'ldim men,
Vatan tuprog'ini tavof qilganda.
Shunday ajib go'zal hisni tuyibman,
Ming shukurki, yerni bosib yuribman!*

*Qaydan keldim, qayga ketishim bilmam,
O'zni bilmay o'zimga ham tilsimman.
Cheksiz koinotga bir nigoh taqsam,
Derman, shukr, yerni bosib yuribman!*

*Odamlardan oldin paydo momo yer,
Insoniyat rizqin bergan momo yer.
Balki bugun razolatdan "la'nat" der,
Tog'laridek toqati ham baland yer!*

*Yam-yashilik, go'zallik senda serob,
Tog'laringda abad turar qorlar oppoq.
Aytgim kelar senga rahmat ayni shu tob,
Ajdodlarim merosisan azim tuproq!*

*Bir kun kelib albat yana senga qaytgum,
Borligimga men xudoga shukur aytgum.
Oxir kunimgacha bosib yurganim uchun ,
Jonsiz tanam tuproq bo'lib senga qaytgum!*

USTUN ERUR...

*Oqibatki o'zni bilmay sevib qo'ydik,
Yuragimiz o'zgalarga berib qo'ydik.
Lek mag'rurmiz endi nima qilmoq kerak?
Ustun erur, aqlimizmi yoki yurak?*

*Gar g'ururga legar razil ishlar bilan,
Qalbimizni yaratagan so'zlar bilan.
Aqlim hayron endi nima qilmoq kerak?
Ustun erur, aqlimizmi yoki yurak?*

*Nafratimdan, hislarimdan o'zimman lol,
Yuragimning ohlaridan bo'ldim behol.
Qiynalsak ham endi boshni egmoq kerak,
Ustun erur, aqlimizmi yoki yurak?*

*Lekin biling, aql kuchli kelsa bir on,
Yurak yig'lar endi yana qiynalar jon.
Uni hush ko'rgandan ko'ra o'lmoq kerak,
Ustun erur, aqlimizmi yoki yurak?*

*Gar hislarim o'tkinchidir endi bildim,
Yuragimga ishonib men xato qildim.
Ustun erur, aqlimizmi yoki yurak?
Mening fikrim, barchasiga aql kerak!*



SOG'INCH

*Seni qanchalar sog'indim,
Eslasam yuragim og'riydi.
Bir vaqtlar eding sen yaqinim,
Endi olisliging qiynaydi.*

*Insonga berilgan umr bir lahza,
Nahot sendan ayrilganim rost bo'lsa.
Chidolmayman hunday uqubatlarga,
Bir lahzalik umrim azobda o'tsa.*

*Yuragimning har bir urishi,
Ming azobdan berar dalolat.
Ovunolmam hech qaysi ishga,
Bizning ishqimizda qani adolat?*

*Seni unutmoqchi bo'ldim, oqibat,
Xayollarim hech tinch qo'ymaydi.
Hali-hali aytgan so'zlaring,
Qulog'imda takror yangraydi.*



YOLG'IZ QOLDIRING

*Meni hayolarla goldiring yolg'iz,
Hislarim qalbimda ko'tarar to'fon.
Mana yuragimdan otilib chiqib,
Ro'paramga o'tirib oladi armon.*

*Mana men ko'p seni qiynagan g'amman,
Tushkunlik keltirgan alamli damman.
Orzular so'zlaydi ishonma unga,
Men yorug' kuningman qarama lunga.*

*Ruhimda zo'r kurash etmoqda davom,
Zavqlanib hislarim kurashar hamon.
Olov og'ushida lov-lov yonaman,
Chirs etadi yurak, barchasi tamom.*

*Eshik ochiladi, ko'rinar sharpa.
Hayollar bir zumda qochib qolishar.
Ular ko'p norozi ko'rinar mendan,
Vaqtim ziqligidan juda nolishar.*

*Ko'zlarimni uzgim kelmaydi sira,
Oqar daryo to'xtamas, o'tmoqda mana.
Meni hayolarla goldiring yolg'iz,
Hislarim poyiga cho'kkim belar tiz.*



USTOZIMGA TABRIK

Yu. Xolmo'minovga atab

Kimdir yer talashar, talashar dunyo.

Talasha-talasha, yerga kiradi.

Kimdir nur ulashar, ulashar ziyo.

Ulasha-ulasha, dilga kiradi.

Bu so'zlaringiz ustoz,

Menga saboq bo'ladi.

Balki necha insonlarni,

To'g'ri yo'lga soladi.

Sizday mehrli zot bor,

Nomingiz tillarda yod.

Talabaga jon fido,

Dilingizda yo'q g'ubor.

Ustoz so'zi onadek,

Unutilmas dunyoda.

Zafarli hayotingiz,

Davom etsin ziyoda.

Ustozim sizga niyat,

Har doimgi shijoat.

Chaqqonligu ildamlik,

Tark etmasin hech qachon!

Do'stlaringiz qadrdon,

Yig'ilishibdi bu on.

Qutlash uchun bo'lib jam,

Baxt tilaydilar mudom.



YOSHLAR SHIORI!

*Biz yoshlarmiz shiorimiz —
“Har bir ishga bo‘l tayyor!”
Doim olg‘a intilamiz,
Shundan bizga tole yor!*

*El-yurt uchun, Vatan uchun,
Sarflaymiz kuch-qudratimiz.
Tinch-farovon bo‘lsa ochun,
Ortib borar shuhratimiz.*

*Garchi olis bo‘lsa hamki,
Hali biz ko‘zlagan marra.
O‘sha tomon intilyapmiz,
Sira cho‘chimasdan zarra.*

*Ajdodlarning merosini,
O‘rganamiz, kashf etamiz.
Ular yetolmagan manzil,
Sarhadlarga biz yetamiz.*



NAFRAT, MUHABBAT, SHAVQAT

*Muhabbatning nafratgacha yo'li bir qadam,
Muhabbatning shavqatgacha yo'li bir qadam.
Umr bo'yi shunday hisga tobedir odam,
Har lahzada taqib etar, izlaydi har dam.*

*Ey do'stlarim, Muhabbatni asray biling siz,
Sizni tashlab ketmasin shunday shirin his.
Muhabbat o'z nomila atalsin hargiz,
Hayotimiz mehr bilan bo'lgaydir to'kis.*



KECHIROLMAYMAN!

*Qilmishlaring bari gunohdir,
Aybni aytmoq, asli savobdir.
Xom sut emgan banda gumrohdr,
Balki seni kechirolmayman!*

*Go'zal orzu-niyatlar sindi,
Shirin hislar tug'yoni tindi.
Qalbim sening kimliging bildi,
Endi seni kechirolmayman!*

*Dil uzoqda sendan tobora,
Sirlaringni etib oshkora.
Uzrlaring aytsang ming bora,
Lekin seni kechirolmayman!*

*Sevgi asli bir orzu-havas,
Inson ko'nglin tushunolsang bas.
Endi shirin so'zlar kerakmas,
Aslo seni kechirolmayman!*

*Balki kimdir ustimdan kular,
Gar ortimdan g'iyhatim qilar.
Senga bergan hislarim kuyar,
Xayhot, seni kechirolmayman!*

*Ko'zlarimdan oqar duv-duv yosh,
Unga nima? U bir bag'ritosh.
Hammasiga bersam ham bardosh,
Kechir, seni kechirolmayman!*




ARMON

*Kel, dedim-u o'zim bordim yoningga,
Ko'zlarimdan ma'no qidirding.
Topgandayin yo'qotganingni,
Hayotimga quvonch singdiring.*

*Ket, dedim-u yo'l oldim o'zim,
Olib qolmoqlikka chora qidiring.
Olis makonlarda baxt topganimda,
Taqdiringdan go'yo baxtni sidirding!*

*Kelmas-ketmas bo'ldim men o'zim,
Kelmaganing uchun chekarsan fig'on.
Qolmaganim uchun menda ham armon,
O'lgan ishqimizga ko'k kiyar osmon.*



*Yig'ladim. Yig'ladim. Men bugun,
Firoqim bag'rimda bo'ldilar tugun.
Xotiramda alam ko'tarib to'zon,
Meni yanada ham xarob qildilar!*

*So'zlayman dardimni faqat o'zimga
Qalbimning torlari lahzada vayron.
Ko'zimning dengizi, kun-tuni hayron,
Ko'rinar olam ham yomon ko'zimga.*

*Qulog'imga chalinar so'zlar noshukur,
Deyman: Ey ojiza qilsang-chi shukur.
Sabahlar besabab tuyulgay zimdan,
Yana yig'lah yubordim noshukurligimdan.*



KUYGAN KO'NGIL

*Kuyganimga kuldingiza,
Kaminadan ko'rarsiz.
Kulfatingiz kunlarida,
Kulganimda kuyarsiz!*

*Kimxob ko'ylaklarda ko'ringum,
Kimlardan kamidim ko'ringiz.
Ko'zingga Kumushdek ko'ringum.
Kaminaga kelolmay kuyingiz.*

*Kecha-yu kunduzlar ko'p kuydim,
Kishanlar kiydirdim ko'nglimga.
Ko'ngil kuzlariga kam ko'ndim,
Kafanlik kiydirdim ko'nglimga!*

*Kuygandek kelibon kularsan,
Kimlarga ketibon kularsan.
Ketayver, kelmagin ketayver,
Ko'ngildan ketishing kutayver!*

*Kullarga ko'milgan ko'ksimda,
Ko'nglimni ko'tarolmay ketarman.
Ko'zlarim kosasi ko'milganda,
Kamina kelishing kutarman!*

*Ko'rgulik kamdayin kelmaysiz!
Kelmaysiz! Kutarman. Kutarman.
Kamimning koriga kelmaysiz.
Kutmayman, Ketarman, Ketarman!*



OLLOH QO'LLASINI!

*Doim yo'ldoshimiz bo'lsin matonat,
Shunda bizga yaqin bo'lgay farog'at.
Iymonni to'q tutib, saqlab diyonat,
Sizni, bizni olloh qo'llasin faqat!*

*Qilsak gar yaxshilik, qilmaylik minnat,
Ortimizdan hech kim demasin "la'nat".
Hargiz eshitganim bo'lsin deb "rahmat"
Sizni, bizni olloh qo'llasin faqat!*

*Insoniy tuyg'udir bizga muhabbat.
Vafoli bo'laylik, qilmay xiyonat.
Ko'nglimiz yorug'dir, bo'lsa sadoqat,
Sizni, bizni olloh qo'llasin faqat!*

*Eng suyukli erur, bizga diyonat,
Bugun do'stlarga ham qilsak xusumat.
Demak manziliga yaqin jaholat.
Sizni, bizni olloh qo'llasin faqat!*

*Har ishda yor bo'lsin bizga adolat,
Agar yaqinlarga qilsak hamoqat.
Shu on o'rtamizda paydo adovat.
Sizni, bizni olloh qo'llasin faqat!*

*Amallarning go'zali biling tilovat,
Yaratganga hamisha qilay itoat.
Musulmoning yaxshisi aytar salovat.
Sizni, bizni olloh qo'llasin faqat!*

*Ortidan so'zlamoq gunohdir g'iybat,
Savobli ishlarga shijoat, g'ayrat.
Berganiga qilib toqat-qanoat,
Sizni, bizni olloh qo'llasin faqat!*

*Yaxshilarga deylik doimo "rahmat"
Ular so'zi bizga chin ezgu da'vat.
Asli kuch-qudratdir e'tiqod, madat,
Omonat dunyoda bo'ling salomat!
Sizni, bizni olloh qo'llasin faqat!*

MUNDARIJA

Ta`zim.	4
O`zbek ayoli.	5
Ona baxti – farzand iqboli.	6
She`rimsan.	7
Chin do`stlar ayrilmaydi.	8
Qishning ketgisi kelmas!.	9
Bahor keldi.	10
Yo`l quruvchisi.	11
To`rtlik.	12
Alamli ishq.	13
Omon bo`ling dadajon.	14
Bolalar uyi.	15
Oyjamol muallimim.	16
Farzandlarni chin yetim etib ketdingiz.	17
Barchaning ko`zida quvonch yarqirar.	18
Momo yerga shukrona!.	19
Ustun erur.	20
Sog`inch.	21
Yolg`iz qoldiring.	22
Ustozimga tabrik.	23
Yoshlar shiori!.	24
Nafrat, Muhabbat, Shavqat.	25
Kechirolmayman!.	26
Armon.	27
Yig`ladim, yig`ladim, Men bugun.	28
Kuygan ko`ngil.	29
Alloh qo`llasin!.	30

adabiy-badiiy nashir

Nigora NORMURODOVA

Umid kurtaklari

Muharrir	Munajat MO'MINOVA
Badiiy muharrir	Bahriddin BOZOROV
Tex. muharrir	Elena DEMCHENKO
Rassom	Davron RAJAB
Musahhah	Makruba MO'MINOVA
Kompyuter ustasi	T. NAJMIDDINOV

Bosishga ruxsat etildi 01.10.2007. Bichimi 84X108 ¹/₃₂. AkadememyUZ
gamitulasi. Ofset bosma. Shartli bosma tobog'i 2,0. Nashriyot bosma tobog'i 1,68.
Adadi 500 nusxa. Buyurtma № 255. Bahosi kelishilgan narxda.

“Yangi asr avlodi” nashriyot-matbaa markazi, 700013, Toshkent shahri,
Qatortol ko'chasi,60.

“Yoshlar Matbuoti” bosmaxonasida bosildi.